



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

4. S. S. Yuldosheva, Shahar transport shovqini va uning inson organizmiga ta'sirini gigiyenik baholash, Golden Brain, 2023, 1-son, 10-qism, 500–503-betlar.

A. Dushanov va Sh. T. Iskandarova, Umumiy gigiyena, Toshkent, 2008, 476 bet.

5. M.Jabbarova, Q.Usmonov “Avtotransport vositalaridan chiqayotgan shovqin darajasining atrof-muhitga bo'lgan ta'sirini o'rganish tamoyillari” Problems of architecture and construction (T.1,Выпуск 2, cc.15-19).
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15037393>

**URBANIZATSIYA JARAYONIDA SHAHAR KO'CHA-YO'L
TARMOG'INI REJALASHTIRISHDA, SHAHARLARNI FUNKSIONAL
ZONAGA AJRATISHNING AXAMIYATI (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)**

Durdiev Xurshid Davronbek o'g'li
Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizdagi barcha turdagi yo'llar orqali yuk va yo'lovchilarning manziliga yetkazilishi, dunyoda va respublikamizda shahar aholisining o'sishi, hududlarni funksional zonalarga ajratilishi, shahardan esuvchi shamol yo'nalishi, shaharni gorizantaliga kengaytirish masalalari bo'yicha takliflar keltirilgan.

Аннотация

В данной статье представлены предложения по вопросам доставки грузов и пассажиров по всем видам дорог в нашей стране, роста городского населения в мире и в нашей республике, разделения территорий на функциональные зоны, направления ветра, дующего из города, расширения города по горизонтали.

Annotation

This article presents proposals on the delivery of goods and passengers along all types of roads in our country, the growth of the urban population in the world and in our republic, the division of territories into functional zones, the direction of the wind blowing out of the city, and the horizontal expansion of the city.

Kalit so'zlar

Shahar ko'cha-yo'llari, urbanizatsiya, funksional zonalar, shamol yo'nalishi.

Ключевые слова

Городские улицы-дороги, урбанизация, функциональные зоны, направление ветра.


Key words

Urban streets-roads, urbanization, functional areas, wind direction.

Asosiy qism


Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) taraqqiyot dasturi O'zbekistondagi ekspertlarining fikricha, bugungi kunda yuk va yo'lovchi tashishning asosiy qismi aynan avtomobil va shahar ko'cha-yo'llariga to'g'ri kelmoqda. Xususan, mamlakatimizdagi barcha turdagi yo'llar orqali yuklarning qariyb 85% ga yaqini, yo'lovchilarning esa 95%dan ortig'i o'z manziliga ishonchli va havfsiz yetkazilmoqda[1]. Bu shundan dalolat beradiki, Respublikamizning qon tomiri deb e'tirof etiluvchi ushbu inshoot mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi. Shu bois O'zbekistonda iste'molchilarni ishonchli, qulay, xavfsiz va rentabelli transport aloqasi bilan ta'minlaydigan ayniqsa shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini kelajakda urbanizatsiya jarayonini hisobga olib, ekologik toza va barqaror shahar maqomida tashkil etish vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmonlari [2]da ham, mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, transchegaraviy garmsel shamollari va chang-qum bo'ronlarining atrof-muhitga hamda insonlarga zararli ta'sirlarining oldini olish maqsadida qator tadbirlar aniq belgilab qo'yilgan.

Ma'lumki so'nggi o'ttiz yil ichida dunyoda urbanizatsiya jarayoni jadal sur'atlar bilan rivojlanib, global miqyosda aholi sonining o'sishi, sanoatlashuv va infratuzilma kengayishi natijasida shaharlar misli ko'rilmagan darajada kengaydi va tubdan o'zgardi. Bu jarayon shaharlarning iqtisodiy, madaniy va ekologik qiyofasini ham sezilarli darajada o'zgartirdi [3].



1-rasm. Mintaqalar bo'yicha shahar aholisi (2005-2050 yillar)

1950 – 1975 yillar davomida dunyoda shahar va qishloq aholisi qariyb bir xil sur'atlarda o'sdi. Biroq, keyingi yillarda bu muvozanat shahar aholisi foydasiga keskin o'zgardi. O'zbekistonda ham shahar aholisi soni yildan-yilga ortib, bu jarayonning asosiy sabablari shaharlarga ichki migratsiya sababli – qishloq aholisi ish, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohalari kengroq yo'lga qo'yilgani sababli shaharlarga ko'chib kelmoqda. Bu jarayon esa o'z-o'zidan yangi shahar va shaharchalarning barpo etilishi – yangi sanoat zonalari, yirik qurilish loyihalari aholini to'plab, urbanizatsiya sur'atini tezlashtirmoqda.



**2-rasm. Respublikamiz shahar va qishloq aholisini o'sishi
(2010-2025 yillar)**

Bu yerda 2010–2025 yillarda O'zbekistonda shahar aholisi va qishloq aholisi o'sish tendensiyasi ko'rsatilgan bo'lib, so'ngi 5 yilda shahar aholisi qishloq aholi soniga nisbatan o'sish ko'rsatkichi biroz tezkorlik bilan o'sib bormoqda. Respublikamizdagi yirik hamda katta shaharlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib va ulardagi yuqori demografik holat sabab yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarga shaharsozlik hamda urbanizatsiya tamoyillari asosida yechimlarni shakllantirish, shuningdek kelajakda yangi shaharlarni rejalashtirishda amaldagi me'yoriy xujjat [4]da keltirilgan funksional zonalarga ajratish talablarga to'liq amal qilinishi kerak.

Aholi punktlari hududlarida funksional zonalar amaldagi me'yoriy xujjatda quyidagicha belgilab qo'yilgan:


turar joy zonalari;

ijtimoiy-amaliy zonalar;

ishlab chiqarish zonalari;
 muhandislik va transportga oid infratuzilmalar zonalari;
 rekreatsiya zonalari;
 qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalaniladigan zonalar;
 maxsus maqsadlarga mo'ljallangan zonalar;
 harbiy ob'ektlar va boshqa rejimli hududlar zonalari;
 shahar atrofi zonalari.

Shaharlarning rejaviy tuzilmasida funksional zonalarining ixcham joylashuvi va ko'cha-yo'l tarmog'ida transport vositalarining o'zaro aloqalari, hududdan samarali foydalanish va oqilona bo'linishi, tabiiy-iqlimiy, landshaft, milliy-maishiy xususiyatlarni hisobga olgan holda, shuningdek transport vositalaridan ajraladigan shovqin va zararli gazlarni imkon kadar atrof-muhit va insonlarga zararini kamaytirgan holda shakllantirish lozim. Shu bilan birga bu jarayonlarni rejalashtirishda inobatga olinishi zarur bo'lgan masala bu shahardan esuvchi shamol yo'nalishi.

Urganch shahrining 2015-2025 yillardagi shahardan esgan shamolning yo'nalishi bo'yicha har bir oy kesimida o'rtachasi o'rganilganida [5] quyidagicha aks etdi:



3-rasm. Urganch shahrining yillik o'rtacha shamol yo'nalishi

Ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki shamolning yo'nalishi asosan g'arb va janubi-g'arbiy tomondan shaharga esmoqda. Kelajakda shaharni rejalashtirishda sanoat va ishlab chiqarish zonalarini shaharning g'arb va janubi-g'arbiy tomoniga rejalashtirish tavsiya etilmaydi. Sababi bu zonlardan chiqadigan chang va zararli moddalar to'g'ridan to'g'ri shaharning markaziga joylashadi va insonlarda har xil allergik kasalliklarni qo'zg'atish xavfi yuqori. Shaharda urbanizatsiya darajasining o'sishi, ishlab chiqarish va ish o'rinlarini yaratilishi yaxshi lekin boshqa tomondan shaharni faqat vertikaliga rivojlanishi shahar ko'cha-yo'l tarmoqlarini rivojlanmasdan qolib ketishiga sabab bo'lmoqda [6]. Bundan kelib chiqib, shaharni nafaqat vertikal rivojlantirish balki gorizantal kengaytirish shaharni xududlarga ajratish zarurligini ko'rsatmoqda.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki shaharlarda urbanizatsiya jarayoni kuchaygan sharoitda shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini funksional zonalash asosida rejalashtirish – transport oqimini boshqarish, shaharni barqaror rivojlantirish, aholi uchun qulay va xavfsiz harakat muhitini ta'minlash eng muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.S.Sodiqov, Sh.B.Axmedov, A.G'.Yunusov. Shahar yo'l-transport tarmoqlarini rejalashtirish. Darslik. Toshkent. 2022. 117-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 23 noyabrdagi PF 199-son "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni.
3. OON-Xabitat. Sostoyanie gorodov mira izd. Yersken, London. 2008/2009. 136 str.
4. SHNQ 2.07.01-23 «Aholi punktlarining hududlarini rivojlantirish va qurishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish». O'zbekiston Respublikasi Qurilish va Uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi. Toshkent: 2024-111-b.
5. https://meteo9.ru/archive_v_urgence/5ah3G

6. A.X.Urokov, A.A.Qutliyev, X.D.Durdiyev. Urganch shahar ko'cha-yo'l tarmog'ini rivojlanishiga aholi zichligi va avtomobilizatsiya darajasining ta'sirini tahlil etish tamoyillari. // SamDAQU Me'morchilik va qurilish muammolari. Ilmiy-texnik jurnal – 2025. – №2. 20-25 b.

SHAHAR TRANSPORT SHOVQININING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Radjapova Mohira Pirnazarovna

Urganch Davlat Universiteti doktranti

Elektron pochta manzili: salihalar@gmail.com,

Tel: +998937402270

Annotatsiya

Shovqinning ifloslanishi butun dunyo bo'ylab hayot sifatiga ta'sir qiluvchi asosiy xavflardan biri sifatida tan olingan. Texnologiyalar, sanoatlashtirish, urbanizatsiya va boshqa aloqa va transport tizimlarining jadal o'sishi tufayli shovqin ifloslanishi yillar davomida yuqori qon bosimi, uyqusizlik, ko'ngil aynish, yurak xuruji, depressiya, bosh aylanishi, bosh og'rig'i va eshitish qobiliyatini yo'qotish kabi turli xil sog'liqqa ta'sir qilishning oldini olish uchun o'rganilishi va nazorat qilinishi kerak bo'lgan bezovta qiluvchi darajaga yetdi.

Аннотация

Шумовое загрязнение признано одним из основных факторов, влияющих на качество жизни во всем мире. В связи с быстрым развитием технологий, индустриализацией, урбанизацией и развитием других систем связи и транспорта, уровень шумового загрязнения за последние годы достиг тревожных значений, которые необходимо изучать и контролировать для предотвращения различных последствий для здоровья, таких как повышенное кровяное давление, бессонница, тошнота, сердечные приступы, депрессия, головокружение, головные боли и потеря слуха.

Annotation

Noise pollution is recognized as one of the major hazards affecting the quality of life worldwide. Due to the rapid growth of technology, industrialization, urbanization, and other communication and transportation systems, noise pollution has reached disturbing levels over the years that need to be studied and controlled to